



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME‘YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**TAMAKI MAHSULOTLARIGA QO‘YILADIGAN  
GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining  
0259-08- sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2008**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA  
QOIDALARI VA ME’YORLARI, GIGIYENA  
NORMATIVLARI**

---

**«TASDIQLAYMAN»**  
**O‘zbekiston Respublikasining**  
**Davlat bosh sanitariya vrachi**  
\_\_\_\_\_ **B.I. Niyozmatov**  
**27-noyabr 2008-yil**

**TAMAKI MAHSULOTLARIGA QO‘YILADIGAN  
GIGIYENIK TALABLAR**

**O‘zbekiston Respublikasining**  
**0259-08- sonli SanQvaM**

**Rasmiy nashr**

**Toshkent – 2008**

## **1. UMUMIY QOIDALAR**

1.1. Mazkur gigiyenik talablar “Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi va “Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur gigiyenik talablar respublikada ishlab chiqariladigan hamda xorijdan olib kelinadigan tamaki mahsulotlarining barcha turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

1.3. Tamaki mahsulotlari belgilangan tartibda tasdiqlangan sanitariya norma va qoidalariga rioya etilgan holda retsepturalar hamda texnologik yo‘riqnomalar bo‘yicha standartlar talablariga muvofiq tayyorlanishi lozim.

1.4. O‘zR 082-98-sonli SanQvaM “Tamaki mahsulotlariga qo‘yiladigan gigiyenik talablar” o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

## **2. SIGARETALAR SIFATIGA QO‘YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR**

2.1. Sigaretalar va o‘ramlarning tashqi ko‘rinishi nuqsonlarni baholashning balli tizimi bo‘yicha aniqlanadi. Nuqsonlar ballarining umumiy yig‘indisi 130 dan oshmasligi kerak.

2.2. Namligi –  $13 \pm 2\%$ .

2.3. Diametri 0,55 mm bo‘lgan elakdan o‘tadigan mayda tamaki fraksiyasining miqdori: atsetat filtrli 1-2-sinflar uchun – ko‘pi bilan 2,5%; filtrli va filtrsiz 3-4-sinflar uchun – ko‘pi bilan 3%; 5-sinf uchun – ko‘pi bilan 3,5%; 6-sinf uchun – ko‘pi bilan 4,0%; 7-sinf uchun – ko‘pi bilan 4,5% bo‘lishi kerak.

2.4. Filtrlovchi mundshtukning uzunligi kamida 15 mm bo‘lishi kerak (filtrli sigaretalar uchun).

2.5. Filtrsiz sigaret tutunidagi qatronlar miqdori bir sigaret uchun 16 mg dan, filtrli sigaret tutunidagi qatronlar miqdori esa bir sigaret uchun 14 mg dan oshmasligi kerak.

2.6. Filtrsiz sigaret tutunidagi nikotin miqdori bir sigaret uchun 1,3 mg dan, filtrli sigaret tutunidagi nikotin miqdori esa bir sigaret uchun 1,2 mg dan oshmasligi kerak.

2.7. Radionuklidlar miqdori, Bk/kg, ko‘pi bilan:

- seziy-137 – 100;

- stronsiy-90 – 30.

2.8. Tamakidagi mog‘or miqdori (KHM/g) 100 dan oshmasligi kerak.

2.10. Sigaret qutisida O‘zR Sog‘liqni saqlash vazirligining "Sog‘liqni saqlash vazirligi ogohlantiradi: "Chekish sog‘liq uchun xavfli" degan ogohlantiruvchi yozuvi bo‘lishi kerak.

2.11. Tashqi ko‘rinish, namlik, mayda fraksiya miqdori, qatron va nikotinni sinovdan o‘tkazish usullari – O‘zDSt 1148:2008, ISO 10315, ISO 4387 va GOST 3935 bo‘yicha.

2.12. Mog‘or va radionuklidlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tavsiya etilgan usullar bo‘yicha tekshiriladi.

2.13. Sigaretlar va tamaki mahsulotlari tarkibida aromatizatorlar va boshqa qo‘shimchalardan foydalanishga faqat O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining ruxsati bilan toksikologik-gigiyenik baholashdan so‘ng yo‘l qo‘yiladi.

### **3. TAMAKINING QAYTA ISHLANGAN TURLARIGA (HIDLAMA TAMAKI, FERMENTLANGAN, MAYDALANGAN TAMAKI) GIGIYENIK TALABLAR**

3.1. Namlik darajasi  $13 \pm 2\%$ .

3.2. Xavfsizlik mezonlari (iste‘molga tayyor mahsulot uchun):

| Ko‘rsatkichlar                                       | Ruxsat etilgan darajalar, mg/kg, ko‘pi bilan | Izoh                                            |
|------------------------------------------------------|----------------------------------------------|-------------------------------------------------|
| Toksik elementlar:                                   |                                              |                                                 |
| Qo‘rg‘oshin                                          | 0,5                                          |                                                 |
| Mishyak                                              | 1,0                                          |                                                 |
| Kadmiy                                               | 0,05                                         |                                                 |
| Simob                                                | 0,01                                         |                                                 |
| Pestitsidlar:                                        |                                              |                                                 |
| geksaxlorsiklogeksan (alfa, beta, gamma-izomerlari)  | 0,02                                         |                                                 |
| DDT va uning metabolitlari                           | 0,01                                         |                                                 |
| Radionuklidlar:                                      |                                              |                                                 |
| seziy-137                                            | 100                                          | Bk/kg                                           |
| stronsiy-90                                          | 30                                           | Xuddi shunday                                   |
| Mikrobiologik ko‘rsatkichlar (hidlama tamaki uchun): |                                              |                                                 |
| KMAFAM                                               | $5 \times 10^3$                              | KHM/g, ko‘pi bilan                              |
| BKGB (koliformlar)                                   | 1,0                                          | mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydigan massa (g) |
| <i>B. cereus</i>                                     | 100                                          | KIB/g, dan ko‘p emas                            |
| patogen, jumladan salmonellalar                      | 25                                           | mavjud bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmaydigan massa (g) |
| Mog‘orlar                                            | 100                                          | KIB/g, dan ko‘p emas                            |
| Achitqilar                                           | 100                                          | Xuddi shunday                                   |
| Gelmint tuxumlari                                    | Yo‘l qo‘yilmaydi                             |                                                 |

*Izoh: qoldiq miqdorlar va xomashyo ishlab chiqarishda qo‘llanilgan pestitsidlarni nazorat qilish zarur.*